

## SONNING LEKSIK – GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti**Pedagogika fakulteti**BT-1-24 talabasi**Tojiyeva Xolbibi Abdusalom qizi*

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada mustaqil so‘z turkumlaridan biri bo‘lgan; predmetning miqdorini, sanoq jihatdan tartibini bildiruvchi so‘zlar guruhi hisoblangan son so‘z turkumi haqida atroflicha ma’umot beriladi. Sonning leksik-grammatik xususiyatlari, turlari, morfologik xususiyatlari, otlashib kelishi va ma’nolariga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan.

**ANNOTATION:** This article is one of the independent word groups; A detailed report is given about the numerical word group, which is a group of words that indicates the quantity and numerical order of the subject. The lexical-grammatical features, types, morphological features, conjugation and meanings of the number are discussed in detail.

**АННОТАЦИЯ:** Данная статья является одной из самостоятельных групп слов; Подробно сообщается о числовой группе слов, которая представляет собой группу слов, обозначающую количество и числовой порядок предмета. Подробно рассмотрены лексико-грамматические особенности, виды, морфологические особенности, спряжение и значения числа.

**Kalit so‘zlar:** son, sonning ma’no turlari, leksik xususiyatlari, otlashgan son, sanoq son, miqdor son, dona son, chama son, jamlovchi son, taqsim son va kasr son.

**Key words:** number, semantic types of number, lexical properties, accusative number, countable number, quantitative number, unit number, sum number, total number, division number and fractional number.

**Ключевые слова:** число, семантические типы числа, лексические свойства, винительное число, счетное число, количественное число, число единицы, число суммы, общее число, число деления и дробное число.

Son o‘zbek tilidagi mustaqil so‘z turkumlaridan biri; predmetning miqdorini, sanoq jihatdan tartibini bildiruvchi so‘zlar guruhi. Son narsa-buyumning sanog‘ini, joylashish tartibini, ish-harakatning bajarilish tartibini bildirgan so‘zlar son deyiladi. Necha? Qancha? Nechanchi? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Har qanday son raqam ko‘rinishida ifodalanadi. Oz, ko‘p so‘zлari ham miqdorni ifodalarydi. Eski o‘zbek tilida tuman (100 000), lak (yuz ming) sonlari ham bo‘lgan. Boshqird, uyg‘ur tilida ming (o‘n)ni bildirgan. Son predmetning miqdorini bildiradi. Shuning uchun gapda predmet tushunchasini ifodalovchi otga bog‘lanib keladi. Son otga bog‘lanib kelgan konkret miqdorni ifodalarydi. Otga bog‘lanmagan holda ham qo‘llanadi. Otga bog‘lanmagan holda ham qo‘llanadi. Bunda miqdor mavhum, abstrakt bo‘ladi. (hisoblashda).

Sonning morfologik xususiyatlari: 1) turlanmasligi: Bir ozdan keyin shoir holvafurush tandirdan yangi uzilgan ikkita non bilan juda nafis ishlangan mis lagan kesma holva olib chiqdi: 5 kitob, 10 talaba. Otga bog‘langanda, son bog‘langan sifatlarning ot tushib qolganda (otlashadi). Turlanadi (2 xil tushunchani – miqdor, predmetni, tasavvurni aks ettiradi). Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni. Otlashgan son fikrni stimistik jihatdan ixcham, obrazli ifodalash uchun xizmat qiladi. Hamma turlari ham turlanmaydi, chamali son (-tacha, -lab) –lar, va kasr songa qo‘shilmaydi. Sonning turli modal formalarini hosil qilgan forma yasovchi qo‘shimchalar bor, -ta, -tacha, -tadan, -ov kabi. Sonning bu modal formalari predmetning to‘dasini, taxminiy miqdorini, taqsimini ko‘rsatadi: beshtadan daftar, uchchala talaba v.h.

Son ham sifat va ravish kabi belgi tasavvurini bildiradi va shu jihatdan o‘sha turkumlarga yaqin turadi. Sifat predmetning belgisini, ravish harakatning belgisini, Son esa predmetning miqdori, sanog‘i va tartibiga ko‘ra belgisini bildiradi. Sonlar otlar bilan birga qo‘llanib, bir necha predmetlarning yig‘indisini, aniq miqdorini (beshta kitob) yoki noanik, miqdorini (o‘ntacha bola) ifodalarydi. Son harflar bilan ifodalanadi (bir, o‘n, ellik) yoki arab va rim raqamlari bilan (3, 5, 10, V, IX, XX) ko‘rsatiladi.

Sonlarning otlashishi. Son bog‘lanib kelgan ot qo‘llanmaganda, otga qo‘shilib kelgan so‘z o‘zgartiruvchi affikslar, ya’ni egalik, kelishik hamda shakl yasovchi ko‘plik affiksini olishi mumkin. Bunday morfologik jihatdan o‘zgargan son otlashgan son

sanalib, gapda ot bajargan ega, to‘ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, kesim kabi sintaktik vazifalarni bajaradi: Birov tosh, birov gul, o‘z joyida ikkovi ham yaxshi. Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni. O‘nning yarmi besh.

Otlashgan son fikrni stilistik jihatdan ixcham obrazli ifodalashi uchun xizmat qiladi. (Maqol, matal, aforizmlarda ko‘p uchraydi) Sonning hamma turlari ham morfologik jihatdan o‘zgarmaydi (chama son – tacha, -lab, -lar kasr songa qo‘silmaydi).

Sonlar ma’no xususiyatiga ko‘ra, 2 asosiy turga bo‘linadi: miqdor sonlar va tartib sonlar. Miqdor Sonlar predmetning miqdori, sanog‘iga ko‘ra belgisini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida miqdor Slar 6 turga bo‘linadi: sanoq son, dona son, chama son, jamlovchi son, taqsim son va kasr son.

Sanoq son — predmetning sanog‘ini bildiruvchi miqdor son turi (bir, ikki, o‘n, yuz). Dona son — predmetning miqdorini donalab ko‘rsatuvchi miqdor son. Bunday sonlar sanoq songa -ta qo‘sishchagini qo‘sish bilan hosil qilinadi (beshta kitob, qirqta daftар). Predmetlarni donalab ko‘rsatishda sonlar juft, metr, nusxa, nafar, bosh, tup kabi hisob (numerativ) so‘zlar bilan birga qo‘llanadi: bir juft qo‘sish, ikki metr atlas, besh tup o‘rik va boshqa. Chama son predmetning noaniq miqdorini, taxminan hisobini ko‘rsatadi. Miqdor sonning bu turi 2 usul bilan: sanoq songa -tacha, -lab, -larcha affikslaridan birini qo‘sish (o‘ntacha, o‘nlab, o‘nlarcha) va turli sonlarni juftlash yoki ayrim so‘zlar bilan birga qo‘llash orqali hosil qilinadi. Jamlovchi son bir turdagи predmetlarning yig‘indisini ifodalaydi, ularni jamlab ko‘rsatadi; sanoq songa -ov, -ala affikslarini qo‘sish bilan hosil qilinadi (beshov, oltov; uchala, to‘rtala). Taqsim son predmet miqdorini teng qismlarga taqsimlash, guruhlash yo‘li bilan bildiradi va sanoq songa -tadan affiksini qo‘sish orqali hosil qilinadi (beshtadan bo‘lib kelmoq, to‘rttadan qalam ushlamoq). Kasr son butunning qismlarini bildiradi va, odatda, sanoq sonning chiqish va bosh kelishik shaklidagi birikmasi orqali ifodalanadi. Tartib son predmetning anik, miqdorini, ketma-ketligini ifodalaydi. Ular sifatlarga yaqin bo‘lib, ular kabi predmet belgisini bildiradi; sanoq sonlarga —(i)nchi (ba’zan lamchi) affiksining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi: birinchi, ikkinchi, o‘ninchи; birlamchi, ikkilamchi.

Tuzilishiga kura, Sonlar 4 turga bo‘linadi: sodda son — birgina so‘zdan ifodalananadi: bir, o‘n, ellik, ming; murakkab son — ikki yoki undan ortiq o‘zakning birikuvidan hosil bo‘ladi: o‘n ikki, qirq besh, bir yuz ellik olti, ikki ming to‘rtinchı; juft son — birdan ortiq sonning nisbiy teng bog‘lanishi asosida tashkil topadi va taxminan miqdorni bildiradi: besh olti kishi, o‘n o‘n besh kun, ellik oltmis xonodon. Takroriy son — bir xil o‘zaklarning aynan takrorlanishidan hosil bo‘ladi va jamlash yoki taqsimlash ma’nolarini ifodalaydi: birbir aytib chiqdi, beshta beshta bo‘lib saflanmoq, kitobni o‘nta o‘nta qilib taxlamoq.

O‘zbek tilida son kategoriyasining 2 turi mavjud: birlik son — bir turdagи narsa buyumlardan bittasini (o‘quvchi, daftar, daraxt); predmetning bir (yakka) shaxsga tegishliligini (ukam, daftaring, qalami); olmoshlarda shaxsning yakkaligini (men, sen, u); fe’llarda harakatni bir (yakka) shaxs bajarishini (oldim, kelding, ko‘raman, o‘qiysan, boradi) bildiradi; ko‘plik son — predmetning birdan ortiqligini, ko‘pligini, uning birdan ortiq (ko‘p) shaxsga tegishliligini (kitoblar, daraxtlar; kitobimiz, maktabingiz, uylari); olmoshlarda shaxsning birdan ortiq (ko‘p)ligini (biz, siz, bizlar, ular); fe’llarda harakatni birdan ortiq shaxs bajarishini (bordik, borganmiz, boramiz; ishlasak, ishlasangiz) bildiradi. Otlarda birlik sonni ko‘rsatadigan maxsus qo‘sishma yo‘q, ko‘plik son esa - lar affiksini qo‘sish orqali hosil qilinadi. Ko‘p tillarda birlik son ko‘plik songa qarama qarshi qo‘yiladi. Biroq ayrim tillarda (som tillarida, Avstraliya va Amerikaning mahalliy tillarida) ikkilik son, ba’zan uchlik son g‘am uchraydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘.Abdurahmonov,A.Sulaymonov „Hozirgi o‘zbek adabiy tili sintaksisi” 1980
2. N.Mahmudov, A.Nurmonov,A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahme-dov Ona tili. Umumta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T., «Ma’naviyat» 2005
3. Anvarovna, Umarova Dilafroz. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy ustyanovkalarni rivojlantirish texnologiyasi.” Tadqiqotlar 31.4 (2024).